O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 6 - iyul 142-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 13 iyundagi 263-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 81-sonli Farmoni hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 13 iyundagi 263-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi 81-sonli Farmoni hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 13 iyundagi 263-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon bilan:

a) Tabiat resurslari vazirligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Ekologiya vazirligi) deb qayta nomlanganligi;

b) Bosh prokuraturaning tashkiliy-shtat tuzilmasida qo‘shimcha 6 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda — Boshqarma) tashkil etilganligi.

Bunda:

Toshkent viloyatidagi tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha hududiy maxsus prokuratura faoliyati Boshqarma tomonidan muvofiqlashtirilishi;

Ekologiya vazirligi tizimining umumiy shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga Toshkent viloyati prokuraturasiga ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida qo‘shimcha shtat birliklari ajratilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi tomonidan tuman (shahar)larda ilovaga muvofiq atmosfera havosining ifloslanishi fon monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashgan kichik stansiyalar xarid qilishni respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan ssuda mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlashi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

4. Toshkent tumani Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi (B.Eshnazarov):

2024-yil yakuniga qadar xalqaro tajriba asosida viloyatning barcha hududlarini ekologik baholash bo‘yicha indikatorlar asosida “eco-indicator.uz” reytingi shakllantirilishi va har bir hududning ekologik pasporti e’lon qilinishini inobatga olib, bu borada o‘z takliflarini viloyat boshqarmasiga kiritsin;

2024-yil 1-iyunga qadar tumanning 2030-yilgacha mo‘ljallangan ekologik “master-reja”sini belgilangan tartibda ishlab chiqilishi hamda Xalq deputatlari Toshkent tumani Kengashiga tasdiqlash uchun kiritilishini;

ekologik “master-reja” ijrosi va uning natijadorligi yuzasidan har chorakda tegishli hisobotlar tayyorlanishini va tumani hokimligi hamda Ekologiya boshqarmasiga amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborot kiritib borilishini ta’minlasin.

5. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Sultonov), tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi (B.Eshnazarov) 2023-yil yakuniga qadar har bir davlat tashkiloti, tuman hokimliklarining tegishlicha byudjetdan tashqari va mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan o‘z bog‘lari tashkil etilishini hamda uch yil davomida parvarishlanishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

Bunda:

Tashkilotlarning bog‘lari tuman markaziy hududida 50 sotixdan 2 gektargacha bo‘lgan maydonlarda;

bog‘larni barpo etish “Yashilloyiha” loyihalash instituti va Davlat ekologik ekspertizasi markazi tomonidan ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlari asosida amalga oshirilishi;

barpo etiladigan bog‘lari uchun yer maydonlarini aniqlash va mablag‘larni ajratish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi inobatga olinsin.

6. Sektor rahbarlari Ekologiya vazirligi tomonidan aholi va keng jamoatchilik orasida atrof-muhitni himoyalash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga qaratilgan “Chiqindilarni ommaviy yig‘ish” (O‘zPlogging) umummilliy harakatini amalga oshirishda ushbu tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish, tadbirlarga keng jamoatchilik va ekofaollarni jalb etishga mas’ul etib belgilansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi boshlig‘i belgilansin.

8. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 6-iyuldagi
142-10-212-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yilda tuman (shaharlar)da atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringini amalga oshirish uchun o‘rnatiladigan avtomatlashgan KICHIK STANSIYALAR

T/r	Tuman (shahar) nomi	Jami postlar soni
Viloyat bo‘yicha jami 42		
1.	Olmaliq shahri	3
2.	Angren shahri	3
3.	Bekobod shahri	4
4.	Chirchiq shahri	4
5.	Ohangaron shahri	2
6.	Yangiyo‘l shahri	2
7.	Nurafshon shahri	2
8.	Oqqo‘rg‘on tumani	1
9.	Ohangaron tumani	1
10.	Bekobod tumani	1
11.	Bo‘stonliq tumani	4
12.	Bo‘ka tumani	1
13.	Zangiota tumani	3
14.	Qibray tumani	2
15.	Quyi Chirchiq tumani	1
16.	Parkent tumani	2
17.	Piskent tumani	1
18.	Toshkent tumani	1
19.	O‘rta Chirchiq tumani	1
20.	Chinoz tumani	1
21.	Yuqori Chirchiq tumani	1
22.	Yangiyo‘l tumani	1